

«Asaka» Bankining 2019 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi

«Asaka» Bankining 2018 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi «Asaka» Bankining O'zbekiston bank bozorida 2018 yildagi tijorat faoliyati uchun asos hisoblanadi va 2018 yil uchun belgilangan strategik parametrlarni amalga oshirish, jumladan, ularga erishish uchun tadbirlarni ham o'z ichiga olgan moliyaviy loyihadir.

Jumladan,

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2017 yildagi №PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan tizimli asosda banklarning raqobatbardoshlik daradasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash topshirilgan.

2. Aholining mamlakat bank sektoriga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, mijozlarning ehtiyojlarini doimo monitoring qilib borish, bank xizmatlarini ko'rsatish madaniyatini oshirish, har bir mijozning talabini qondira oladigan ilg'or bank xizmatlarini ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 yildagi 3620-sonli «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori qabul qilindi.

3. Ustav fondida davlat ulushi mavjud banklar faoliyatining past samaradorligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish va ularni tezkor ravishda ilg'or amaliyot va xalqaro standartlar asosida faoliyat yurituvchi barqaror moliyaviy muassasalarga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2018 yildagi 4071-sonli «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Reja ko'rsatilgan muammolarni, bankning real istiqbollari va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan barcha tashkiliy tuzilmalarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi 2019 yilga mo'ljallangan korporativ vazifalarning aniq-ravshan qo'yilishini o'z ichiga oladi.

2019 yilga mo'ljallangan Bank daromadlari va xarajatlarining tuzilmasi

	mlrd so'm	nisbiy qiymat
Daromadlar jami, shu jumladan:	1 590,9	100,0%
Foizlik daromadlar	1 987,9	76,7%
Foizsiz daromadlar	603,0	23,3%
Xarajatlar jami, shu jumladan:	2 425,9	100,0%
Foizlik xarajatlar	1 518,8	62,6%
Foizsiz xarajatlar	82,5	3,4%
Operatsion xarajatlar	419,5	17,3%
Ssuda va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy ziyonlar zaxirasi	360,0	14,8%
Foydadan soliq	45,1	1,9%
Sof foyda:	165,0	